

## RAHMATULLA BARAKAYEV VA UNING OLIMONA FAOLIYATI

**Hamidulla Boltaboyev**

filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbek bolalar adabiyoti qanchalik boy va rang-barang bo‘lmasin, bu dunyo o‘ziga yarasha tadqiqotchilarga ega. Ayniqsa, bolalar adabiyoti tadqiqotchiligi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida o‘z tarixiga ega. Ildizlari XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligiga borib taqaladigan zamnoviy adabiyotshunoslikning bir qanoti bolalar adabiyoti bo‘lib kelgan. Bu sohada Homil Yoqubov, Salohiddin Mamajonov kabi ustod olimlardan tortib kuni kecha bu ulug‘larning yo‘lidan borgan, mana bugun o‘nlab shogirdlar ardog‘ida yurgan Rahmatulla Barakayevgacha o‘tgan olimlarning ilmiy o‘rni bor. Bir tomoni hozirgi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetiga borib ulanadigan Abdulla Suyumovu Mamasoli Jumaboyevgacha va Pirmat Shermuhamedovdan tortib Yozuvchilar uyushmasidagi bolalar adabiyoti bo‘limi xodimlarigacha bu go‘zal adabiyotning tadqiqotchilari sanaladi. O‘zbekiston bolajon davlat, shuning uchun ham bolalar adabiyoti doimo tadqiqot markazida turishi bizning yurtga begona emas.

Ildizi “Qutadg‘u bilig”dagi aqlu donish haqidagi rivoyatlarga borib taqaladigan bolalar adabiyotimizning bu kungi namoyandalari o‘zlarining ulug‘ ustozlari Navoiy va Bobur asarlaridan saboq olganlar. XX asr tongotarida Avloniy, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon, Elbeklarning bolalar zehniyatini oshirishga qaratilgan asarlari, G‘afur G‘ulom, Oybek, A.Qahhor, Zafar Diyor, Sulton Jo‘ra, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa‘dulla, Hakim Nazir, Po‘lat Mo‘min, Qudrat Hikmat, X.To‘xtaboyev, T.Adashboyev, A.Obidjon... bu nomlarni yanada davom ettirish mumkin. Lekin tilga olingan adiblar o‘zbek bolalar adabiyotining mumtoz vakillari. “Mumtoz” nisbasini faqat inqilobgacha bo‘lgan adiblarga nisbatan qo‘llanilishiga o‘rganib qolgan kitobxonlar buni qabul qilmasligi mumkin, biroq XX asr o‘zbek bolalar adabiyoti tom ma’noda mumutozlashuv davrini boshdan kechirgani sir emas. Bu holni mavzuimiz boisi filologiya fanlari nomzodi, institutning yetakchi ilmiy xodimi, professor Rahmatulla Barakayev asarlarini o‘qib bilib olish mumkin.

Rahmatulla Barakayev boshqa olimlar qatori eng “dolzarb”, zamonasoz mualliflar ijodini o‘rganishni o‘z oldiga qo‘ymadi. Izchil ravishda o‘zbek bolalar adabiyotini sinchiklab o‘rgandi. Uning mumtoz namoyandalari haqida maqola va kitoblar yaratdi, yangi asr bo‘sag‘asida bir o‘zi tadqiq maydonida yolg‘iz qolmasligi uchun atrofiga shogirdlar to‘pladi va boy hamda sermazmun adabiyotimiz o‘ziga munosib ravishda tadqiq etilishini istadi. Bu jihatdan olimning asarlarini sinchiklab o‘rganayotgan mtaxassislar o‘z fikrini aytishgan, lekin men birgina Avloniy domlaning bolalar adabiyotiga doir asarlarini hech tolmay tadqiq va tashviq

qilayotganini alohida ta’kidlagim keladi. R.Barakayev Avloniy asarlariga munosabatda bo‘lar ekan, u ulug‘ adaibning hech bir asarini diqqatidan ayro ko‘rmadi. Bizning o‘zbekchilikda noto‘g‘ri bir taomil bor. Biz dini mubinimiz islom tarixini o‘rganishni bolalikdan emas, balki keksalikdan boshlashni urf qilganmiz. Dunyo bolalari “Bolalar uchun Injil hikoyatlari”ni o‘qiyotgan bir paytda biz nafaqaga chiqqanda ibodat qilarmiz, deb o‘zimizga tasalli beramiz. Aslida, millatning barcha ulug‘lari hofizi Qur‘on bo‘lishlikni bolalikda boshlaganini unutmashimiz kerak. Ayniqsa, muqaddas islom tarixining bolalikdan o‘rganilishi lozim ekanini jadid otalarimiz o‘rinli ta’kidlash bilan cheklanmay, Behbudiy, Fitrat va Avloniyning “muxtasar islom tarixlari” yozganini bilamiz. Mana shu mazmunda R.Barakayev ulug‘ pedagog Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asarini tabdil qilib, nashrga tayyorlagani, izohlar va so‘ng so‘z muallifi o‘laroq uni nashr etganidan juda mamnunligimni bildirmoqchiman. Chunki Avloniy bolalar qalbini boshqa zamondoshlaridan ko‘ra chuqurroq his qilgan adib. Shunday ekan, Rahmatulla Barakayev Avloniy uslubini yaxshi bilgani uchun ham mana shu asarni o‘zbek kitobxonlariga ilindi. Qolaversa, bu risola Avloniy asarlarining ikki jildligiga ham kirmagan edi. Men Fitrat domlaning “Muxtasari tarixi islom” asarini forsiydan tarjima qilganimda buni shu holicha o‘zbek bolalariga yetkazish hali erta ekanini his qilganman. Biroq professor Fitrat asarining mukammalligini ta’kidlagan holda, uning muhtasham va zalvorli ifoda uslubiga nisbatan bolalarimiz uchun Avloniyning tili va uslubi yaqinroq ekanligini tan olgim keladi. Shuning uchun ham Rahmatulla Barakayev XX asr boshlarida yaratilgan besh islom tarixidan aynan Avloniy asarini tabdil qilib, o‘zbek yosh kitobxonlariga taqdim etdi.

Rahmatulla Barakayev nafaqat olim, balki ilmiy ishlar va olimlik faoliyatining tashkilotchisi. Agar o‘zini ilmiy kotiblik ishini mas’uliyat bilan bajarishga sarf etmaganida allaqachon fan doktori yoki ilm arbobi bo‘lar edi. Institut olimlari faoliyati uchun bu vazifa nihoyatda muhimligini anglab, akademik Baxtiyor Nazarovning faoliyatini davom ettirib, To‘ra Mirzayev va Naim Karimov kabi akademiklarning topshirig‘iga quloq solib, o‘z umrining salmoqli qismini ilmiy kotiblikka berib qo‘ydi. Bundan tashqari, Ixtisoslashgan ilmiy kengash kotibi sifatida bir qator yosh olimlarning ilmga kirib kelishlariga sabab bo‘ldi, bu sohada davlat buyurtmasiyu OAK talablarini sidqidildan ado etdi.

Biz ko‘pincha, shovqinkor yoki sensatsiyaga o‘ch kishilarni ko‘tar-ko‘tar qilamizu yonimizdan oqqan suv kabi o‘tib hammamizga nafi tegishlikning o‘zining hayot mazmuniga aylantirgan shaxslarni yetarlicha qadrlay bilmaymiz. Men professor Rahmatulla Barakayevni ana shunday o‘z kasbiga sadoqatli, kamtar olim sifatida bilaman va o‘zbek ilm ahli ham olimning ana shunday sadoqatli mehnatini qadr qilishlarini istayman.